



THE AUTHOR'S STYLE IN WRITING BURHANIDDIN MAHMUD BUKHARI'S WORK "ZAKHIRA"

Yusuf Khushvaktov

Doctoral Candidate

International Islamic Academy of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Zakhira, Burhaniddin al-Bukhari, Hanafi fiqh, fatwa genre, qiyas, istihsan, 'urf, maslahah.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the writing style in Burhaniddin Mahmud ibn Ahmad al-Bukhari's work Zakhira. It examines the author's methods of argumentation, linguistic and stylistic features, his reliance on the Qur'an and Sunnah in substantiating juridical decisions, as well as his use of such methods as qiyas, istihsan, 'urf, and maslahah. The work is compared with other collections of fatwas and is also studied from the perspective of modern academic research.

BURHONIDDIN MAHMUD BUXORIYNING "ZAXIRA" ASARINI YOZISHDA MUALLIFNING USLUBI

Yusuf Xushvaktov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi doktoranti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Zaxira, Burhoniddin al-Buxoriy, Hanafiy fiqh, fatvo janri, qiyos, istihson, urf, maslahat.

Annotatsiya: Maqolada Burhoniddin Mahmud ibn Ahmad al-Buxoriyning "Zaxira" asarining yozilish uslubi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallifning dalillash metodlari, til va uslubiy xususiyatlari, fiqhiy qarorlarni asoslashdagi Qur'on va Sunnatga murojaati, qiyos, istihson, urf va maslahat usullaridan foydalanishi ko'rib chiqiladi. Asar boshqa fatvo majmualari bilan qiyosiy baholanib, zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan ham tadqiq etiladi.

СТИЛЬ АВТОРА ПРИ НАПИСАНИИ ТРУДА «ЗАХИРА» БУРХАНИДДИНА МАХМУДА БУХАРИ

Юсуф Хушвактов*Докторант Международной академии исламоведения Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Захира», Бурханиддин аль-Бухари, ханафитский фикх, жанр фатвы, кияс, истихсан, урф, маслахат.**Аннотация:** В статье научно анализируется стиль написания труда «Захира» Бурханиддина Махмуда ибн Ахмада аль-Бухари. Рассматриваются методы аргументации автора, языковые и стилистические особенности, его обращение к Корану и Сунне при обосновании фикхических решений, а также использование таких методов, как кияс, истихсан, урф и маслахат. Произведение сопоставляется с другими сборниками фатв и исследуется также с позиции современного научного подхода.

Kirish. Islom huquqi tarixida fiqhiy merosning muhim qismini fatvo majmualari tashkil etadi. Bu janr Qur'on va Sunnat asosida, ijtihodiy metodlar orqali jamiyat hayotida yuzaga keladigan masalalarga javob topishga qaratilgan. Burhoniddin al-Buxoriy qalamiga mansub "Zaxira" asari hanafiy fatvo adabiyotida ensiklopedik xarakterga ega bo'lib, uning yozilish uslubi o'z davri uchun noyob bo'lgan. Ushbu maqolada muallifning metodologiyasi va uslubi, til va dalillash an'analari hamda boshqa fatvo majmualaridan farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Qur'on va Sunnatga asoslanganlik "Zaxira" asaridagi yorqin uslub hisoblanadi. "Zaxiratul-fatovo" asari o'z mazmun-mohiyatida shariatning asosiy manbalari bo'lmish Qur'on va Sunnatga tayanuvchi yondashuvni namoyon etadi. Burhoniddin Mahmud Buxoriy hanafiy mazhabi faqih sifatida barcha hukmlarning manbai sifatida Allohning kalomi va Payg'ambar ﷺ sunnatiga suyanishni lozim deb bilgan. Asar matnida ko'plab oyat va hadislar hujjat sifatida keltiriladi. Masalan, namozning ma'naviy ahamiyatini sharhlashda muallif Qur'ondagi: "وَالْمُنْكَرُ الْفَحْشَاءُ عَنْ تَتَهَى الصَّلَاةِ إِنَّ" oyatini (Ankabut surasi, 45-oyat) keltirib, namoz odamni buzqlik va yomonliklardan qaytarishini eslatadi. Bu oyatning zikri muallif hukmlarining bevosita Qur'onga tayanib izohlanishiga dalildir.[1]

Shuningdek, "Zaxira"da Payg'ambar ﷺ hadislariga tayanish ham kuzatiladi. Muallif ko'pincha "قال - وسلم عليه الله صلى - الله رسول" ("Rasululloh ﷺ aytdilar") kabi ifodalar orqali hadislarni keltirib, masalalarning yechimini sunnatdan izlaydi. Misol tariqasida, tahorat bobida Abu Hurayradan rivoyat qilingan bir hadis keltiriladi: "Payg'ambar ﷺ: «Agar biringiz uxlab turib, tahorat olmoqchi bo'lsa, qo'lini idishga tiqishdan oldin uch marta yuvsin. Zero, qo'li kechasi qayerda bo'lganini bilmaydi», – dedilar". Bu hadis "Zaxira"da keltirilib, unga izoh va boshqa

roviylardan kelgan rivoyatlar ham qo'shib o'tilgan. Hadisning mazmuni va unga berilgan sharh orqali muallif masalaning yechimini Rasululloh ﷺ sunnatlaridan qidirganini ko'rish mumkin.

Mahmud Buxoriy nafaqat oyat-hadislarni keltiradi, balki ularning daliliy kuchini ham inobatga oladi. Hanafiylar odatda ohod hadiskarni (yakka roviydan kelgan hadis)larni qabul qilishda ehtiyotkor bo'lganlar, bu ma'lum metodologik xususiyat. Natijada hanafiylar ba'zan zaifroq hadis o'rniga qat'iyroq dalil – qiyas yoki ijmo'ga murojaat qilishadi. Shu bois, “Zaxira” asarida hadislar keltirilganda ularning ishonchliligi va fiqhiy qabul qilish imkoniyati ham tahlil qilinadi (masalan, asar nashrida muharrirlar ba'zi hadislarning isnodini ko'rsatib, ularning sahiflik darajasini ham qayd etganlar, hatto zamonaviy olimlarning baholarini ham eslatganlar). Bunday yondashuv asarning Qur'on va Sunnatga qat'iy suyangani, ammo ularni fiqhiy metodlar yordamida chuqur tahlil qilib qo'llayotganini anglatadi.

Hanafiy mazhabida Qur'on va sahih Sunnat qat'iy dalil sanaladi. Buni Abu Hanifaning o'ziga nisbat beriladigan quyidagi so'z tasdiqlaydi: “Agar biror masalada Qur'on oyati bo'lsa uni olaman. Undan topa olmasam sahih hadis mavjud bo'lsa, men o'sha hadisga ergashaman”. “Zaxiratul-fatovo” ham aynan shu tamoyilda – har bir hukmning asl manbasi Qur'on oyati yoki payg'ambarimiz sunnatidagi dalil ekanini ko'rsatadi. Misol uchun, bir masalada aniq nas (oyat yoki sahih hadis) topilmasa, muallif sahobalarning so'z va amallariga murojaat qiladi, zero, sahobalar diniy hukmlarni to'g'ri anglashi va yetkazishida ishonchli manbadir. Shundan so'ng ehtiyoj tug'ilsa, qiyos kabi boshqa usullar qo'llanadi. Bu haqida keyinroq batafsil to'xtalamiz. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, “Zaxiratul-fatovo” asarining har bir bob-u faslida muallif Qur'on oyati va hadisga tayanuvchi dalillarga suyangan holda hukm chiqaradi. Bu yondashuv hanafiy mazhabining Qur'on va hadis matniga muvofiqlik prinsipiga amal qilishidir. Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Burhoniddin Buxoriy “Zaxira” asarida nafaqat o'z zamonasidagi masalalarga javob bergan, balki buni Qur'on va Sunnat ruhiga mos ravishda ado etgan, bu esa uning merosini bugungi kunda ham qiymatli sanashga sabab bo'ladi. Haqiqatan ham, bugungi musulmon jamiyatida to'g'ri fatvo berish uchun Qur'on va hadisga tayangan holda, an'anaviy fiqh usulini qo'llash zarur ekani olimlar tomonidan uqtiriladi. Buxoriyning “Zaxira”si ana shu talablarga javob beradigan, Qur'on va Sunnat nurlaridan oziqlangan asardir.

Fiqhiy metodologiya: qiyos, istihson, urf va maslaha. Burhoniddin Mahmud Buxoriy o'z asarida hanafiy fiqhining klassik metodologiyasiga amal qilgan. Qiyos (analogiya) va istihson (yaxshiroq deb topish) usullari, shuningdek, urf (odat) va maslaha (foyda, manfaat) kabi tushunchalardan foydalanish “Zaxiratul-fatovo”ning yozilish uslubida yaqqol namoyon bo'ladi.[1]

Avvalo, qiyos – Qur'on va Sunnatda bevosita hukm topilmagan masalani u bilan o'xshash hukm mavjud asosga qiyosan hal etish – hanafiylikda keng qo'llanadi. "Zaxira" muallifi Abu Hanifa va uning izdoshlarining qiyosga qay darajada e'tibor berganini eslatib o'tadi: "Imom Abu Hanifa va mazhab imomlari Qur'on, sunnat yoki sahoba so'zida hukm topilmasa, qiyosga murojaat qilganlar" deb yozadi. Mahmud Buxoriy naql qilishicha, ular qiyosni haqiqiy dalilga bog'liq holda qo'llashgan, ya'ni yangi voqea-hodisani Qur'on yoki hadisda hukmi bayon qilingan voqeaga sabab-illat o'xshashligi tufayli qiyos qilganlar. Demak, "Zaxira"da yangi masalalar yechimida qiyos asosiy manbalardan so'ng turuvchi muhim usul sifatida tasdiqlanadi.

Biroq, Buxoriy qiyosdan ham yuqori bir tamoyil-istihson borligini ko'rsatadi. Istihson Hanafiy mazhabining "xos yengillik yo'li" bo'lib, qiyos natijasi og'irlik yoki noqulaylik tug'dirsa, undan ko'ra qulayroq yechimni tanlashni anglatadi. "Zaxiratul-fatovo"da istihson mohiyati haqida Saraxsiydan quyidagicha tarif keltiriladi: "للناس أوفق هو بما والأخذ القياس ترك هو الاستحسان", ya'ni "istihson – qiyosni tark etib, odamlarga eng ma'qul bo'lgan yechimni qabul qilishdir". Bu ta'rif muallif asarida berilgani istihsonning nazariy asosini ham eslatadi.[1]

Asarda Abu Hanifa va ilk hanafiy ulamolar istihsonni qo'llashda ham peshqadam bo'lgani qayd etilgan: "Abu Hanifa va as'hoablari istihsonda ham, qiyosda ham benihoya mohir bo'lganlar va undan keng foydalanishgan". Demak, muallif hanafiylarning murakkab masalalarda qiyos natijasidan ko'ra qulayroq va adolatliroq yechim topishga intilganini ta'kidlaydi. Masalan, "Zaxira"da keltirilgan bir metodologik izohda aytilishicha: Abu Hanifa masalalarni avval qiyosga binoan hal qilgan, "الاستحسان على أمضاها القياس قَبَحَ فَإِذَا", "agar qiyos nojo'ya natija bersa, istihsonga muvofiq hal qilgan", "المسلمون به يتعامل ما إلى رَجَعَ لَهُ يَمْضُ لَمْ فَإِذَا", "agar istihson ham qat'iy bo'lmasa, u holda musulmonlar odatiga (urfga) murojaat qilgan" Bu bayonot muallif tomonidan Sahldan naql qilinib, "حنيفة أبي علم هذا", "Bu – Abu Hanifaning ilmi (uslub)" deb e'tirof etiladi.

Ushbu so'zlardan ko'rinadiki, muallif masalani hal etishda bosqichma-bosqich metodni ko'rsatadi: avvalo qiyosga tayanish, agar qiyos qoniqarsiz bo'lsa istihsonga o'tish, agar istihson ham noqulay bo'lsa, unda musulmonlar orasidagi odatga, ya'ni urfga qarash, shuningdek ishonchli mashhur hadisga murojaat qilish zarurdir. Istihson bilan qiyos to'qnash kelganda qaysi biri "awfaq" – ya'ni muvofiqroq va odilroq bo'lsa, o'shani tanlash tavsiya etiladi. Bunday yondashuv qonuniy yechimlarda faqat quruq qiyosiy mantiqni emas, balki insonlar manfaatini va adolat tamoyillarini ham ko'zlash lozimligini anglatadi.

Urf – mahalliy odat va urf-odatlar – ham "Zaxira"da e'tibordan chetda qolmaydi. Yuqoridagi Sahl ibn Mazah ta'rifida istihson qiyosning ijmo' yoki urfga qarama-qarshi kelgan holatlarida qo'llanishi aytilgan. Bu esa Hanafi mazhabida urf qonuniy dalil bo'lmasa-da, hukm berishda yordamchi omil sifatida ko'rilishini anglatadi. Muallif qayd etishicha, agar qiyos natijasi islom

jamoasida qaror topgan urfga zid bo'lsa, bunday qiyosni tark etib, urfga amal qilish afzal bo'ladi. Chunki urf jamiyat hayotidagi barqaror odat bo'lib, shar'iy jihatdan zarar qilmasa, unga muvofiq hukm chiqarish odamlar uchun qulaylik va adolat keltiradi. Movarounnahr olimlarining asarlarida urfga e'tibor berilishi ularning real hayotga yaqin yondashganini ko'rsatadi. Masalan, Buxoriyning zamondoshi Qozixon ham ba'zi masalalarda "urf shunday ekan, hukm ham shunga yarasha bo'ladi" degan mazmunda fatvolar berganini ko'ramiz. "Zaxira"da bevosita Qozixon nomi zikr etilmasa-da, muallif yondashuvi umumiy hanafiy urfiyatini aks ettiradi – ya'ni shar'iy hukm odamlar odatiga qarab moslashtirilishi mumkin.[1]

Maslaha (masalih al-mursala – erkin manfaatlar) tushunchasi esa hanafiy usulda alohida dalil sifatida ko'p tilga olinmasa-da, uning ifodasini istihson vositasi orqali ko'rish mumkin. Burhoniddin Buxoriy asarida qiyosni tark etib, istihsonni tanlash aynan maslaha tamoyiliga yaqinlashadi, chunki istihson odatda "odamlar uchun yaxshiroq" yechimni izlashdir.

"Zaxiratul-fatovo"da ba'zan "haraj" (qiyinchilik) tushunchasi zikr etilib, din qoidalarini qo'llashda mushkul vaziyat tug'ilsa, engillik berilishi lozimligi ta'kidlanadi. Masalan, Qur'on tilovatidagi ba'zi xatolar namozni buzishi masalasida muallif shunday xulosa keltiradi: "وَالْفُتُوى، الْعَوَامَّ حَقَّ فِي خُصُوصًا، الْحَرَجُ فِي النَّاسِ إِيقَاعًا وَالْإِبْتِدَاءَ وَالْوَصْلَ الْوَقْفَ مُرَاعَاةً فِي لَأَنَّ، حَالِ بَكْلِ الْفَسَادِ عَدَمٍ عَلَى، شَرْعًا مَرْفُوعٌ وَالْحَرَجُ" – ya'ni "Fatvo har qanday holatda ham namoz buzilmasligiga chiqariladi. Zero, (tilovatda) vaqf-vasl va boshlanish qoidalarini haddan ziyod rioya qilish odamlarni, ayniqsa oddiy xalqni mashaqqatga solib qo'yadi. Holbuki, shariatda mashaqqat (haraj) ko'tarilgan (yo'q qilingan)". Bu hukm dinning asosiy maqsadlaridan biri – mashaqqatni ko'tarish va yengillik berish – ga uyg'un maslaha prinsipini ifodalaydi. Demak, Buxoriy qiyos bo'yicha qattiqroq qarash bo'lishi mumkin bo'lgan joyda ham, odamlarga qiyinchilik tug'dirmaslik uchun yengil yo'l (istihson) bilan fatvo bergan[1].

Hanafiy mazhabidagi bu yondashuvni boshqa manbalarda ham kuzatish mumkin. Misol uchun, Imom Molik maslaha-mursala konsepsiyasini ochiqroq qo'llagan bo'lsa, hanafiylar istihson orqali unga erishgan. Zamonaviy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, hatto ayrim muhaddis ulamolar ham amalda foydali yechim topish uchun hanafiylarning qiyos va maslaha yondashuvlaridan ta'sirlanganlar. Demak, "Zaxiratul-fatovo" o'z davri ilmiy an'anasida qiyos va istihsonni mohirlik bilan uyg'unlashtirib, zarur joyda urf va manfaatni inobatga olgan holda masalalarga fatvo beradi. Bu uslub asarni quruq nazariy kitob bo'lib qolmasdan, amaliy hayotga mos va moslashuvchan fiqhiy qo'llanma darajasiga ko'taradi.

Xulosa. Burhoniddin Mahmud Buxoriyning "Zaxira" asari yozilish uslubi nuqtayi nazaridan o'z davrining yirik fiqhiy manbalaridan biri sifatida ajralib turadi. Muallif o'z qarashlarini asoslashda Qur'on va Sunnatga tayanish, shuningdek, qiyos, istihson, urf va maslahat kabi fiqhiy

metodlardan samarali foydalangan. Asarda dalillashning mantiqiy izchilligi, matnning uslubiy aniqligi va fatvo janrining klassik xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuningdek, muallifning ilmiy uslubi komparativ tahlilga asoslanib, boshqa fatvo majmualari bilan solishtirish orqali **"Zaxira"**ning metodologik yondashuvi va juridik asoslarini yanada mustahkamlagan. Buxoriyning uslubi nafaqat Hanafiy fiqh maktabi an'alarini davom ettirgan, balki uni nazariy izchillik, manba tanlash mezonlari va huquqiy dalillarni tartibli keltirish usuli bilan boyitgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, *"Zaxira"* asari o'z davri uchun ensiklopedik qiymatga ega manba bo'lib, bugungi kunda ham fiqh metodologiyasi, islom huquqi va fatvo janrini chuqur tadqiq etishda muhim manba sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda..

Фойдаланилган манбалар рўйхати:

1. Burhoniddin al-Buxoriy ibn Mazah. *"Zaxirat al-fatavo"*. Qo'lyozma nusxalari va nashrlar.
2. Qozixon, Fahriddin Hasan ibn Mansur. *"Fatavo Qozixon"*. Damashq nashri. 2019 y.
3. Zohiriddin al-Buxoriy. *"Fatavo Zohiriyya"*. Damashq nashri. 2018 y.
4. Ibn Obidin. *"Raddul-muhtor"*. Damashq nashri. 2021 y.
5. Brockelmann, C. *Geschichte der arabischen Litteratur*.
6. Özel, A. *"İbn Mâze"*, Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi.
7. Muminov, A. Markaziy Osiyo fiqh maktablari bo'yicha maqolalar.
8. Bedir, M. *Bukharan Hanafism and the Mashayikh: Waqf Law*. Istanbul, 2018.
9. Johansen, B. *Contingency in a Sacred Law: Legal and Ethical Norms in the Muslim Fiqh*. Leiden, 1999.
10. Taye, A. M. *Mâze Ailesi ve Buhara'nın ilmî hayoti*. Ihya, 2022.